II. SANOAT

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8811,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati indeksi 111,7 foizni tashkil qildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 11,3 %ga tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 12 martaga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 22,5% ga va suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 6,7 %ga o‘sishi kuzatildi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarish hajmi mlrd.so‘m





Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,001 % ni tashkil qildi va o‘sish sur’ati indeksi 12 martaga oshdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8423,4 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,594 %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2018 yil yanvar-dekabr oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyalini – 46,3% (40,5 %), o‘rta-quyi texnologiyalini – 8,2 % (8,3 %) va quyi texnologiyalini – 41,0% (47,4 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



Jami viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 9,2 mlrd.so‘mlik (2018 yil yanvar-dekabr oylarida 7,8 mlrd.so‘m), o‘rta-yuqori texnolgiyali tarmoqda 4076,0 mlrd.so‘mlik (2614,2 mlrd.so‘m), o‘rta-quyi texnolgiyali tarmoqda 725,0 mlrd.so‘mlik (536,7 mlrd.so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 3613,2 mlrd.so‘mlik (3060,0 mlrd.so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(yanvar-dekabr oylarida)

Mahsulot turlari	*O‘lchov birligi*	*2019 yil yanvar-dekabr*	*2018 yil yanvar-dekabr*	*2018 yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, % da*
Engil avtomobillar (maxsus engil avtomobillarsiz)	Dona	51824	35051	1,4 m.
Maxsus engil avtomobillar	Dona	7288	7382	98,7
Aroq	Ming litr	1279,1	1763,0	72,6
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nostoykalari konyak spirtidan tashqari	Ming litr	21,4	19,4	110,3
Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari	Ming litr	1192,9	1200,0	99,4
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	Tonna	81648,1	76168,2	107,2
Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni, og‘irligi 600 gr (buxanka)	Tonna	1528,3	1923,4	79,4
Milliy non (yopilgan non)	Tonna	702,0	335,8	2,0 m.
Tozalangan o‘simlik yog‘i	Tonna	18001,9	18864,6	95,4
Xo‘jalik sovuni	Tonna	5521	7379	74,8
Paxta tolasi	Tonna	58846,7	78768,0	74,7
Paxta chigiti	Tonna	91707,8	122437,0	74,9

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan maxsus engil avtomobillar – 94 donaga, aroq – 483,9 ming litrga, tarkibida 15 %dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – 7,1 ming litrga,makaron mahsulotlari shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar - 119,3 tonnaga, birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni, og‘irligi 600 gr (buxanka) - 395,1 tonnaga, tozalangan o‘simlik yog‘i - 862,7 tonnaga, xo‘jalik sovuni – 1808 tonnaga, paxta tolasi – 19921,3 tonnaga, paxta chigiti – 30729,2 tonnaga ishlab chiqarish kamaygan.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 331,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,8 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati indeksi 122,5% ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(yanvar-dekabr oylari uchun)

	O‘lchov birligi	*2019 yil yanvar-dekabr*	*2018 yil yanvar-dekabr*	*O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati % da*
Elektroenergiya	*mln.kVt/ch*	571,7	136,3	4,0 m.
Issiqlik energiyasi	*ming Gkal*	145,1	134,9	107,6

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,635 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko'rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(yanvar-dekabr oylari uchun)

Faoliyat turlari	*O'lchov birligi*	*2019 yil yanvar-dekabr*	*O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati% da*
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar	*Mlrd.so'm*	35,3	89,5
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	*Mlrd. so'm*	20,3	136,2
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar	*Mlrd. so'm*	0,3	116,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(yanvar-dekabr oylari uchun)

Iqtisodiy faoliyat turlari	*2019 yil yanvar-dekabr*	*2018 yil yanvar-dekabr*
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami	**8811,6**	**6457,2**
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarniishlash	**0,6**	**0,05**
ulardan:		
Tog'- kon sanoatigabog'liq boshqa faoliyat	0,6	0,05
Qayta ishlash sanoati	**8423,4**	**6218,8**
undan:		
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1271,7	1018,5
Ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	287,0	225,9
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1805,3	1568,5
Kiyim ishlab chiqarish	32,9	59,1
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	10,5	6,6
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, ishlab chiqarish	9,0	5,8

Iqtisodiy faoliyat turlari	*2019 yil yanvar-dekabr*	*2018 yil yanvar-dekabr*
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	20,4	18,7
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,4	1,1
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,5	0,2
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	28,1	13,4
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	8,7	7,5
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	123,1	92,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	371,9	260,0
Metallurgiya sanoati	31,6	8,6
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	176,0	160,1
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,5	0,3
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	42,1	33,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	388,4	217,0
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3617,3	2349,9
Mebel ishlab chiqarish	35,6	0,03
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	139,3	132,2
Mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	21,9	15,4
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	331,6	192,3
Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	55,9	46,1

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab quvvatlash, kichik biznes sub'ektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 5565,7 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 122,7 foizni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish surati, %



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1263,5 mlrd.so'mni va 4302,2 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 109,3 foiz va 127,3 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 63,2 foizni (2018 yil yanvar-dekabr oylarida 70,2 foiz) tashkil qildi.



Hududlar bo‘yicha sanoat va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

(2019 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

(o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da).

Shahar va tumanlar nomi	*Sanoat mahsulotlari, mlrd. so‘mda 1)*	*2018 yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan ishlab chiqarish indeksi %*	*Iste’mol tovarlari, mlrd. so‘m 1)*	*2018 yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, % da*
Viloyat bo‘yicha jami	**8811,6**	**111,7**	**5565,7**	**122,7**
shaharlar:				
Urganch sh.	1924,2	104,0	858,9	103,3
Xiva sh.	138,3	120,6	134,3	110,5
tumanlar:				
Bog‘ot	284,1	101,7	161,2	106,3
Gurlan	376,2	106,0	174,2	106,3
Qo‘shko‘pir	196,2	103,6	71,2	108,1
Urganch	284,7	110,1	201,3	109,8
Xazorasp	4058,5	145,5	3263,1	140,1
Xonqa	513,1	110,4	249,7	104,9
Xiva	142,9	114,0	135,1	106,3
Shovot	347,9	102,7	109,8	83,6
Yangiariq	247,8	97,0	119,1	107,1
Yangibozor	297,7	107,3	87,8	108,5

1)Hududlar bo`yicha taqsimlanmagan ma`lumotlarni qo`shgan hlda

Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi % da



Diagrammada ko‘rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori Xazorasp tumani 46,1 foiz, Urganch shahri 21,8 foiz, Xonqa 5,8 foiz, Gurlan tumani 4,3 foiz, Shovot 4,0 foizni va Yangibozor 3,4 foiz hamda eng past bo‘lgan Qo‘shko‘pir tumani 2,2 foiz, Xiva shahri 1,6 foiz va Xiva tumani 1,6 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mollari ishlab chiqarish, ming so‘m

Shahar va tumanlar nomi	*Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish*	*Iste’mol mollari*
Viloyat bo‘yicha jami	**4760,0**	**3006,5**
shaharlar:		
Urganch sh.	13474,8	6014,7
Xiva sh.	1512,0	1469,4
tumanlar:		
Bog‘ot	1751,1	993,2
Gurlan	2566,2	1188,3
Qo‘shko‘pir	1153,4	418,6
Urganch	1454,8	1028,1
Xazorasp	16518,1	13281,2
Xonqa	2787,1	1356,3
Xiva	994,4	940,2
Shovot	2072,1	654,0
Yangiariq	2162,3	1039,3
Yangibozor	3449,6	1017,3

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlil qiladigan bo‘lsak, Xazorasp tumanida (16 518,1 ming so‘m), Urganch shahrida (13281,8 ming so‘m), o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (4760 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Qolgan Xiva tumani (994,4 ming so‘m), Urganch tumani (1454,8 ming so‘m), Xiva shahri (1512,0 ming so‘m), Qo‘shko‘pir tumanida (1153,4 ming so‘m) va Bog‘ot tumanlarida (1751,1 ming so‘m) past ko‘rsatkich ekanligini ko‘rish mumkin.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste’mol mollarining o‘sishi,

2018 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga o‘rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o‘sish sur’atlari Xazorasp (2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 143,0%), Xiva shahri (118,8%), Xiva (112,1 %) va Xonqa (108,6%) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, Yangiariq (95,5%), Bog‘ot (99,9%), Qo‘shko‘pir (101,8%) tumanlari ko‘rsatkichlarining pasayishi kuzatildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik sub’ektlari sanoat ishlab chiqarishda yildan yilga ularning hissasi tobora ortib bormoqda.

Xususan, 2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,6 % ga oshishini ta’minladi va ishlab chiqarish hajmi 3196,7 mlrd.so‘mni, o‘z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 36,3 % tashkil etmoqda.

Hududlar bo‘yicha yirik va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

(2019 yil yanvar-dekabroylari)



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 99,5 %), Xiva shahri (98,7%), Yangibozor (86,0 %), Urganch tumani (80,5 %), Bog‘ot (70,4 %), Gurlan (62,4 %) va Shovot (61,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Xazorasp (5,0 %) va Qo‘shko‘pir (47,0%) tumanlarida kuzatildi.

Qo‘shma korxonalarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida 25 ta qo‘shma korxonalar tomonidan 1320,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 15,0 % ni tashkil etdi.

Viloyatdagi qo‘shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlar bo‘yicha qo‘shma korxonalarning umumiy hajmidagi ulushi %



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda3058 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ulardan 664 tasi (21,7 %) – Urganch shahriga, 365 tasi (11,9 %) – Urganch tumani, 295 tasi (9,6 %) – Xiva shahri hissasiga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2020 yil 1 yanvar holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2019 yil yanvar-dekabr)



Viloyatda 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 926 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo‘lib, ulardan 160 tasi Urganch shahri, 118 tasi Urganch tumani,100 tasi Xonqa tumani, 75 tasi Xazorasp tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 11 ta loyiha bo‘yicha 38,3 mlrd.so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

	2018 yil yanvar-dekabr	*2019 yil yanvar-dekabr*
Loyihalar soni, *birlik*	15	11
Korxonalar soni, *birlik*	8	8
Ishlab chiqarish hajmi, *mlrd. so‘m*	14,7	38,3

Statistik ko‘rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, o‘zining nosanoat bo‘linmalariga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o‘zgarish indekslari – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir;

Iste’mol mollari – asosan shaxsiy iste’mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhlash Evrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

mahalliylashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda to‘ldiriladi.